

Talablarning o'zbekiston respublikasi qurolli kuchlar davlat muzeyiga tashrifi

2021-yil 13-mart kuni "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakul'teti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini mudiri A.Axmedov, ushbu kafedra assistenti F.Shafkarov hamda 4-kurs 403-gurux murabbiysi M. Raxmatalievlar boshchiligida fakul'tetning 403-gurux talabalari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar davlat muzeyi tashrif buyurishdi. Tashrif davomida professor-o'quvchilar va talabalar muzeydagi harbiy eksponatlar bilan yaqinda tanishib, Buyuk sarkarda Amir Temurga bag'ishlangan alohida "Temuriylar davri harbiy san'ati" ekspozitsiyasi, Markaziy Osiyo xalqlari harbiy san'ati, O'zbekiston xalqining ikkinchi Jahon urushida ishtirokiga bag'ishlangan ekspozitsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari rivojlanishining hozirgi davri, davlatimizning harbiy salohiyati va uning jangovar qudrati hamda yurtimiz posponlari haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldilar.



Bu tashrif talabalarga, Vatan himoyachilarining xizmatlari nechog'lik xatarli bo'lishi bilan bir qatorda o'z vaqtida mas'uliyat hamda yuksak sharaflilik ekanini his qilishga yordam berdi. Shuningdek, ularda Davlatimizning qudratiga nisbatan ishonch hissini hamda yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligi kabi ne'matlarni chuqur anglab yetishga undaydi.

TIQXMMI matbuot xizmati